

MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



N 29
14.10.2023
A 95
7 188

milliy tiklanish



«Biz bir bo'lsak –
yagona xalqımız,
birlashsak Vatanımız»

2
s

Jadid ta'lif
falsafasida ta'lif va
tarbiya ziynati



6
s

Ilm – saodat, ilmsizlik jaholatdir



2023 – 2024-o'quv yilida
700 mingdan ziyod o'quvchi
birinchi sinfga qabul qilindi.
Ana shuncha qorako'zga 12
nomdag'i o'quv qurollariidan
iborat «Prezident soyg'a»lari
ham topshirildi. Ma'lumki,
keyingi yillarda boshlang'ich
sinflar uchun o'quv
dasturlari yangilanib, jahon
standartlariga mos yangi
darsliklar chop etildi.

Prezidentimiz Shavkat
Mirziyoyev mustaqilligimizning
o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan
tantanali marosimdag'i nutqida
ham ta'limga alohida to'xtalib,
joriy o'quv yilidan boshlab 500
nafar xorijiy til o'qituvchilarini
barcha hududlarda ish
boslashini ma'lum qildilar.
Yana bir muhim o'zgarish: Davlat
rahbari tashabbusi bilan endi
o'quvchilarga bitta kasb va ikkita
xorijiy tilni o'rgatish ustuvor
maqsadga aylandi.

Chindan ham farzandlarimiz
dunyo bilan tillasha oladigan etib
tarbiyalashga har qancha sarmoya
kirtsak kam...

Zero, yaqin o'tmishimizda yo'l
qo'yilgan xatolar, ta'lim tizimiga
befarqliq, o'qituvchi qadrining
yerga urilgan oqibatlari endi
endi o'zini ko'satsayti. Qayd
etilishicha, joriy o'quv yilida 193
421 nafar – 42 655 nafari davlat
granti, 150 766 nafar yosh yigit-qiz
to'lov-kontrakt asosida talabalikka
qabul qilindi. Kirish imtihonlarida
bilimlari «g'alvirdan o'tkazilgan»
yoshlarning 40 qabul ortiq'i 56,7
ball ham ololmagani chindan ham
musibatdan boshqacha narsa emas.

Afsuski, farzandlarimizning
maktab, kitob va gazeta
jurnallardan sun'iy tarzda
uzoqlashtirilgani ana shunday
achinlar natijalarga olib
keldi. Lekin hali ham fursat
bor. Millatimiz yetakchisi
ta'kidlaganlaridek, «Biz jahonga
faqat xomashyo emas, avalo
ilm-ma'rifat, ma'naviy boylik
yetkazib bergan ne-ne ulug'

zotlarning avlodimiz. Men
ishonamani, biz bu tarixiy yo'ini
har tomonlama munosib davom
ettirishga qodirmiz...».
Ana shu ta'kid mohiyatini to'la
tushunib, farzandlarimizni
ilmiga rag'batlanirish uchun
butun jamiyat bir yoqadan bosh
chiqarsa, shubhasiz, bundan
keyingi natijalar bugungidek
«achchiq» bo'lmaydi. Zotan,
buyuklarimiz aytganidek, «Ilm –
saodat, ilmsizlik jaholatdir».

≡ «MILLIY TIKLANISH»



≡ ANONSLAR



YARIM ASRLIK MULOQOT

O'tgan asr 60-yillarining boshlari. Toshkent davlat (hozirgi O'zMU) universitetining o'zbek adabiyoti kafedrasi mudiri G'u'lom Karimov taklifiiga ko'ra, kamina — kafedra aspiranti filologiya fakulteti bitiruvchi kurs talabalari bilan adabiyot fanidan ustoz boshlagan seminar mashg'ulotlarini davom ettiradigan bo'ldimi. Tasodifni qarangki, birinchi mashg'ulot G'afurov degan talabaning ma'rurasini tinglashdan boshlandi. Go'yo shabada essa egilib ketgudek nozik, bo'yehan yigit minbarga ohistagini ko'tarildi. Ma'ruzani ham tani-jismiga mos mayin-muloyim ovoza sekingina boshladи. Men uni ovozini balandroq ko'tarib so'zlashga undamoqchi edim, bunga hojat qolmadи. Kattagina auditoriyani to'ldirib o'tirgan talabalar jimiб, hammaning ko'zi minbarga qadalgan edi.

Ma'ruba Said Ahmad hikoyalari xususida edi. O'sha kezlar yaqin kechmishtida chekkan kulfatlarini — lager qiynoqlarini bir oz unutib, nisbiy erkinlik shabdalaridan ilhomlanib to'lib-toshib dilbar hikoyalarni bitayotgan adibimiz haqida uzuq-yulug' gaplar aytilayotgan, men ham ancha-muncha narsalar qoralagan edi. Minbardagi talabaning o'y-mushohadalari, talqinlari, ifoda tarzi ularning birtortasiga o'xshamsadi. Adabiy asarni hayotning ayni nusxasi deb tushunish, «Hayotiylik va g'oyaviylik — bosh mezon» shiori ostida ish ko'rish, adabiy asardon davrga mos g'oya qidirish, asar personajlariga titrik odam, betakror shaxs emas, umumlashma g'oya immosi deb qarash, agar asar shu talablarga javob bersa, muallif sha'niga hamdu sanolar yog'dirish, javob bermasa uni ur-kaltak qilish «an'anasi» hali ham davom etardi...

(Davomi 7-betda)

YANGI O'ZBEKİSTON - MAKTAB OSTONASIDAN BOSHLANADI

» SHUKRONALIK HISSI
BIZNI YUKSAKLIK SARI
CHORLAYVERADI

2
s

MUSTAQILLIK ONGLI
MUNOSABATLARNI
ANGLASH MEZONI

3
s

4
s



BULBULLAR ICHINDA TINMAS ZABONMAN,
HAMON YONINGDAMAN, TANANGDA JONMAN.

8
s

Farhod ASHMATOV,
Oly Majlis Qonunchilik palatasi deputati

DAVLATNING VAZIFASI INSONLARNI BAKTLI-SAODATLI QILISHDIR

Prezidentimiz o'z nutqlarida mutafakkir zotlarning: "Davlatning vazifasi insonlarni baxtli-saodatli qilishdir. Bu maqsadga esa ilm va yaxshi axloq yordamida erishiladi", degan hikmati so'zlarini bejiz tilga olmadilar, albatta. Zero, tarbiya, ta'lim va axloq tushunchalarini inson kelajagining asoslaridir. Ma'lumki,

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mustaqilligimizning 32 yilligiga qarabasida afv to'g'risidagi farmon imzolandi. Bu yana bir bor Yangi O'zbekistonda har bir inson davlat e'tiborida ekandan dalolatdir.

Xususan, yurtimizda bilibilmay xato qilgan va hatto

jinoyat yo'liga kirib qolgan yurtdoshlarimizga ham yangi hayot boshlash imkonini bermoqda. Eng ahamiyatli shundaki, "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi Farmon aynan eng aziz va eng ulug' bayramimiz arafasida imzolandi. Farmonga muvofiq,

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan sodir etgan jinoyati uchun jazo muddatini o'tayotgan hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga o'tgan 286 nafar shaxs afv etildi.

Afv etilganlarning 109 nafari asosiy jazodan ozod etildi, 116 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi. 25 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, 36 nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlarini qisqartirildi. Ularning 39 nafarini ayollar, 22 nafarini 60 yoshdan oshgan erkak, 30 nafarini chet davlat fuqarolari, 3 nafarini esa taqiqlangan tashkilotlar ishtirokchilari tashkil etadi. Albatta, afv etilgan shaxslarning o'z oilasi va yaqinlari bag'riga qaytarilishi, ijtimoiy hayotga moslashib, foydal mehnat bilan shug'ullanishi, sog'lim turmush tarzini yo'nga

“
FARMONGA MUVOFIQ,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING 109-MODDASI 23-BANDIGA ASOSAN SODIR ETGAN JINOYATI UCHUN JAZO MUDDATINI O'TAYOTGAN HAMDA QILMISHIGA CHIN KO'NGILDAN PUSHAYMON BO'LGAN VA TUZALISH YO'LIGA O'TGAN 286 NAFAR SHAXS AFV ETILDI.

qo'yib, jamiyatda munosib o'rinnishlari uchun ularga ko'mak berilayotgani insonlarning jamiyatga qisqa fursata moslashishiga xizmat qiladi. Afv etilgan yurtdoshlarimizning esa bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanishlariga shubha yo'q. Chunki ozodlik – bu ulug' ne'mat bo'lib, har qanday inson uning qadriga yetishi kerak. Shuni qayd etish joizki, mahkumlarga nisbatan bunday g'amxo'rlik tufayli qanchadan-qancha oilalardagi g'am-alam o'rnini quvondi, hijron o'rnini diyor egallaydi. Niyat qilamizki, o'z xatolardan tegishli xulosa chiqargan yurtdoshlarimizning yangi hayotga tashloyotgan qadamlari xayrla bo'lsin.

SHUKRONALIK HISSI BIZNI YUKSAKLIK SARI CHORLAYVERADI

Mustaqillik ota-bobolarimizning asriy orzusini amalga oshirgan, xalqimizning tenglar ichra teng bo'lish huquqini yuzaga chiqargan, shuningdek, milliy o'zlik, qadr-qimmat va qaddimizni tiklagani uchun ham uchun qadri, ham sharafigidir.

Yurtimiz mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanalarimiz marosimdag'i nutqida Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev vatan ozodligi, erki va sha'nini ulug'lash yo'lida shirin jonini fido qilib, qatag'on qurboniga aylangan vatandoshlarimiz haqida shunchalar og'riq bilan gapirdilarki, bu ayniqsa, tariixning achchiq alamlarini ko'rgan yoki eshitgan keksa avlod vakillarini qattiq hayajonga soldi.

Alohiда qayd etilganidek, chindan ham O'zbekiston o'z suvereniteti va davlat mustaqilligiga osonlikcha erishgani yo'q. Ajodolarimizning siyosiy va ma'rifiy intishlari so'nggi bir yarim asr davomida deyarli to'xtanadi.

Istiqlol shukronasi kunlarida yurt fidoyilarini xorish, ular nomini tilga olish, munosib vorislar bo'lishga doir intishlari munosiblik hissi ham qarz, ham farzdir.

BIZ VAQTNI – IMKONIYATGA, IMKONIYATNI – YUTUQQA, YUTUQNI

TARAQQIYOTGA AYLANTIRAMIZ

Akbar AXTAMOV,
partyaning Samarkand viloyat
Kengashi raisi

O'zbekiston mustaqilligining 32 yillik tantanalariga bag'ishlangan bayram tadbirida Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yaqin o'tmishimizda hurriyat uchun kurashgan qanchadan-qancha Vatan fidoyilarini qatag'on qilindi, istiqloqda intilgan kimsha borki, zulm va zo'ravonlik qurboni bo'ldi.

Avvalari "o'zbek" deganda, faqat ertayu kech paxta dalasida mehnat qiladigan zahmatkash insonlar tasavvur qilinash edi. O'zi oq, lekin mehnat qaro bo'lgan paxta xalqimizga kulfat va balolar obil keldi, xolos. Paxta siyosati Orolni qurtdi, ekologiyamizni inqirozga obil keldi, iqtisodiyotimiz va, eng yomoni, ta'lizimizini izdan chiqardi. Oqibatda bir necha avlod chalasavod bo'lib voyaga yetdi.

Tan olaylik, Yangi O'zbekiston islohotlari davridagina bularning barchasiga barham berildi.

Ko'p millatli xalqimizning o'zaro hamjihatlik va ahillikdagi mehnatlari tufayli bugun Yangi O'zbekiston orzu real haqiqatga aylanmoqda. Xalqaro maydonda Vatan qurashiga nisbatan murham va e'tibor ortib boryapti. Qo'shni mamlakatlar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatlar sabab yillarda yechimini kutayotgan muammolar barham topdi. Mintaqa davlatlari bilan aloqalarimiz esa butunlay yangi bosqichga chiqyapti.

Ma'lumki, O'zbekiston o'z taraqqiyotining

Maxsud MUHAMMEDOV,
partyaning Buxoro viloyati
Kengashi raisi

5 ta asosiy yo'nalishini belgilab olgan va unda ta'limi rivojlantirish birinchi galadagi ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan edi. Chunki ta'limi rivojlantirishning turib hech qaysi davlat yuksak taraqqiyotga erishmag'an. Har qanday muammoning yechimi ham, ertangi kunimizni hal qiluvchi omili ham, shubhasiz, ta'lmdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan yana bir haqiqat baralla aytildi: O'zbekiston butun dunyoga faqar xomashyo emas, avvalo ilm-ma'rifikat, ma'naviy boylik yetkazib bergan ne-ne ulug' zotlarning vatan. Biz dunyo tamadduniga intellektual mehnati bilan ulkan hissa qo'shgan ulug' ajodolarning avlodlarimiz. Hech shubhasiz, ularga xos bo'lgan buyuk fizatilatlar, ulay yaratgan shonli an'analar bugun ham bizning qalbimizda, ongimizda, hayotimizda yashamoqda. Bugun yurtimizda bu tarixiy yo'lni munosib davom ettirishga har tomonlama qodir avlod shakllanayotgani e'tirofga loyi.

Turtboshimiz nutqida e'tibor qaratilgan barcha masalalar ertangi kunimiz uchun niyoyatda muhim va dolzarb, albatta. Bugun o'zbek xalqi o'z yetakechisi rahnamoligidagi ulkan maqsadlar sari dadil intilmoqda. Chunki Prezidentimiz ta'kidlaganlardek, biz vaqtini – imkoniyatga, imkoniyatni – yutuqqa, yutuqni taraqqiyot pojdevoriga aylantira oladigan buyuk xalqimiz.



“BIZ BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK VATANMIZ”

Keyingi yillarda rivojlanish, taraqqiyot, islohot va yangilanish so'zlari ko'p tilga olinayotgani bejiz emas. Haqiqata ham, yurtimizda ushu so'zlarga monand maqtashga va e'tirof etishga arzigulik o'zgarishlarga guvoh bo'lyapmiz.

Xo'sh, bugun rivojlanish nimalarda ko'rinyapti? Bir paytalar katta muammo deya e'tirof etilgan masalalarni hal qilish bugun oddiyiga yumushsga aylandi, bir paytalar faqatgina kinolarda ko'rganimiz ilm-fan, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalari yutuqlari hayotimizda o'z hosilasini beryapti.

Amme bularga osonlikcha erishilayotgani yo'q, albatta. Natija – harakai va oldinga intilish orqali yuzaga chiqadi. Prezidentimiz mustaqilligimizning 32 yillik tantanalaridagi marosimda "Biz bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak Vatanmiz" dedilar. Aslida ham hamma hikmat birlikda, vatanparvarlikda, xalq bo'lib yashashda. Tarixdan ma'lumki, tinchligi, osoyishtaligi, erki uchun jon beriganlar ham shuni orzu qilgandilar.

Nazarimda, mamlakat rivojini ikki manfaatdorning o'zaro bitimiga qiyoslash mumkin: Birinchi manfaatdor – davlat. U fuqarolari uchun bilim olish, kasb va hunar egallash, uy-joyli bo'lish, ishlab chiqarish, yo'lda qo'yishi uchun sharoit beradi. Ikkinci manfaatdor esa – xalq. U mayjud imkoniyatlardan to'g'ri yetamiz.

foydalanish orqali o'z turmush sharotini yaxshilaydi, yangilik yaratadi, o'zi va jamiyatining rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Birgina yoshlar va xotin-qizlar uchun yaratilgan imkoniyatlarni tahlil qilsak, yoshlar uchun o'qish, kasb yoki hunar egallash va uy-joyli bo'lish osonlashganini ko'ravimiz.

Ma'lumki, bilda 11 yillik ta'lizimiz bepul, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun konstitutsiya huquq sifatida inkiyuziv ta'lizim foydalanish kafolatlandi, bolaga o'zi qiziqsan hunarni o'rganishi uchun 7-sinfdayoq imkoniyat berila boshlandi. Oliy ta'lima ham qo'shimcha kvotalar yaratildi: xalqaro institutlarning filiallari ochilyapti, eng, asosiy, xorij tili sertifikati orqali muddatidan oldin talaba bo'lish oddiy holga aylandi. Ilmini oshiraman, xorijiy tajriba o'rganaman deganlar uchun davlat tomonidan «El-yurt umidi» jamg'armasi singari institutlar tomonidan aql bovari qilmas yo'llar ohib berilyapti. Xotin-qizlar uchun esa magistratura bosqichining shartnomasi to'lovli davlat tomonidan to'lab berilmoqda.

Talab qilinadigan esa faqat imkoniyatlardan foydalanish. Bi jarayon izchil davom etaveradi endi. Faqat kutilgan o'zgarishlarga erishish uchun o'zgarishlarni avvalo o'zimizdan boshlashimiz lozim. Shundagina ezgu maqsadlarimizga tezroq yetamiz.

Umida RAHМОNOVA,
Oly Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

“

Sifatli ta'lif har qanday davlat taraqqiyotini belgilab beradi. Shuning uchun ham o'qituvchi va murabbiylarning «obro'y joyiga qo'yilsa», maktablar, maktabgacha ta'lif tashkilotlari va oliyoghlarda sifat o'zgarishlari yuz beradi.

YANGI O'ZBEKISTON - MAKTAB OSTONASIDAN BOSHLANADI



Bugunga kelib, ta'lif sohasidagi islohotlar o'quvchi va o'qituvchisi o'rtafigidagi munosabatlarni yaxshilash hamda yangilanayotgan tizimning to'laqonli ishlasiga imkoniyat yaratish beryat. Bu yildan boshlab maktablarga yana 500 nafar xorijlik "til egalari"ning taklif etilgani esa, o'quchilarini qoshimcha darslarga mablag' sarflashlarini oldini olish barobarida bilim sifatiga ham ijobjiy ta'sir qiladi, albatta.

Davlatimiz rahbarining "O'qituvchining obro'si oshsa, maktabning obro'si oshadi, ilmning, ta'lif-tarbiyaning qadri ko'tariladi", degan fikrlari mohiyatida ham asrilar osha o'z mohiyatini yo'qotmay kelayotgan ana shu haqiqat mujassamdir.

Shubhasizki, sifatli ta'lif har qanday davlat taraqqiyotini belgilab beradi. Shuning uchun ham o'qituvchi va murabbiylarning «obro'y joyiga qo'yilsa», maktablar,

maktabgacha ta'lif tashkilotlari va oliyoghlarda sifat o'zgarishlari yuz beradi.

Yana bir muhim yondashuv: maktab ta'limida boshqaruv tiziminining o'zgartirilishi, xususan, direktorlikka nomzodlarning faqat sertifikati bor va zaxiraga kiritilgan kadrlar orasidan tanlanishi, direktorlar va uning o'rnbosarlari har besh yilda bir marta sertifikatsiyadan o'tishi – birinchingan, korrupsiyaning oldini olsa, ikkinchingan, bilim va zakovalti rahbarlar shakllanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Ma'lumki, partiyamizning 2020 – 2024-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida ijtimoiy sohanan yanada rivojlantirish, mamlakatda ta'lif-tarbiya tizimini tubdan ishlo etishning ustuvor yo'nalishlari sifatida uzuksiz tarbiya va ta'lif – mustahkam jamiyat va qadratli davlat poydeyvor ekanli alohida belgilab qo'yilgan.

Zero, bilimli, mas'uliyatlari va erkin fikrlyadigan, o'zi va o'zgalarni hurmat qiladigan, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli avlodni tarbiyalash hayot-mamot masalasidir.

Bu jarayonda esa, eng avalo, qonun ijodkorlari bilan birligida ish olib borilayotgani ko'proq natijalarga yo'l ochyapti. Namanganda ham parlament quyi palatasi va mahalliy Kengash deputatlar bilan ta'lif sohasi muammollari, yoshlarning bilim olishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar o'rganilib, ularni hal etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, 47-Pop saylov okrugidan saylangan deputat Abdumalik Akramov bilan Namangan viloyatidagi muhandislik-qurilish, muhandislik-tehnologiya hamda davlat pedagogika institutlari va Pop tumanidagi maktablarda bir qancha uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazilib, yoshlarning samarali ta'lif olishlaridagi

“
DAVLATIMIZ RAHBARINING «O'QITUVCHINING OBRO'SI OSHSA, MAKTABNING OBRO'SI OSHADI, ILMNING, TA'LIM-TARBIYANING QADRI KO'TARILADI», DEGAN FIKRLARI MOHIYATIDA HAM ASRLAR OSHA O'Z MOHIYATINI YO'QOTMAY KELAYOTGAN HAQIQAT MUJASSAMDIR.

to'siq va muammolari o'rganildi. Ana shu tadbirlarda o'quvchi va talabalarga qabul qilinayotgan farmonu, qarorlar, imtiyozu, imkoniyatlardan xususida ham ma'lumotlar berildi.

Aytish kerakki, ta'limga islohotlar jarayonini dunyo bilimlari o'chog'i bo'lgan kutubxonalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Davlatimiz rahbari joriy yilning 3-fevral kuni Namangan viloyatiga tashriflari chog'ida Davlatobod tumanida tashkil etilgan "Yangi O'zbekiston – yoshlar ziyo maskani" axborot-kutubxonasida bo'lib, maktabdan tortib, kollej, olyi ta'lif muassasalarida ham yigit va qizlarni san'at, madaniyat, ilm-fan bilan qamrab oladigan majmuaviy xarakterga ega bo'lgan mana shunday ziyo maskanlarini yaratish topshirig'ini bergan edilar.

Shundan keyin partiyadoshlarni bilan Davlat yetakchisi tashrif davomida qayd etilgan muhim vazifalar ijrosiga oid choratdbirlar rejasini ishlab chiqib, targ'ibot-tashviqot ishlarni olib bordik. Bugun ham "Yangi O'zbekiston – yoshlar ziyo maskani" axborot-kutubxonasi hamkorligida o'tkazilgan tadbirlar doirasida talaba yoshlar, talaba qizlarning ishtiropini kengroq ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Viloyat olyi ta'lif muassasalarini talaba qizlari o'tasida o'tgan «Zakovat» intellektual bahslari ham ayni shunday tadbirlar doirasida tashkil etildi.

Xulosa o'rnda aytish mumkinki, ta'lim tizimini, xususan, xotin-qizlar ta'limi rivojlantirishiga bu qadar jiddiy e'tibor qaratilayotgani ertangi kun yoshlarning sog'lon hamda go'zel turmush kechirishi, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniiga ega bo'lishi, jamiyatda o'z o'rinnarini topib, komillikka erishishlari uchun eng to'g'ri va ogilona siyosat ekanidan dalolatdir.

Biz siyosatdanmiz

Munosiblik «yuki»

“
Xabarlingiz bor, partiya Markaziy kengashi «Ayollar qanoti» tashabbusi bilan siyosatga qiziquvchi xotin-qizlar uchun «Siyosatga marhamat» loyihasi doirasida deputat ayollar ishtirokida mahorat darslari o'tkazib kelinmoqda. Loyihaning navbatdagi mehmoni – xalq deputatlari Jalaquduq tuman Kengashi deputati Ruhshana Rustamova bo'ldi.



Saylovlardan «shunchaki» emas, g'alabaga ishonch bilan qatnashish kerak. Nomzod o'z okrugidagi muammollardan kelib chiqqan holda kuchli strategiya ishlab chiqishi zarur. Ayniqsa, «Ustoz – shogird» an'asi asosida amaldagi deputatlarga nomzodlarning biriktilishi maqsadga muvoqiq deb o'layan. Eng muhimi, nomzod uni qo'llab-quvvatlaydigan, unga siyosiy madad bo'ladigan, samarali faoliyat ko'rtsatishi uchun qulay muhit yaratib bera oladigan, bir so'z bilan aytganda, har qanday vaziyatda ham uning ortida tura boshlashadi. Buning uchun esa o'sha mahallaning kayvonilari, hurmatga sazovor insonlari bilan suhbatlashish, o'sha hududga taalluqli muammollarni atroficha o'rganish, o'rganibgina qolmay, ularni bartaraf etishga oid aniq takliflar berishingiz, bir so'z bilan aytganda, strategik reja tuzishingiz kerak bo'ladi. Men aynan shunday yo'l tutdim va saylovda 73 foiz ovoz olib, deputatlarga saylanganman.



boshlashadi. Buning uchun esa o'sha mahallaning kayvonilari, hurmatga sazovor insonlari bilan suhbatlashish, o'sha hududga taalluqli muammollarni atroficha o'rganish, o'rganibgina qolmay, ularni bartaraf etishga oid aniq takliflar berishingiz, bir so'z bilan aytganda, strategik reja tuzishingiz kerak bo'ladi. Men aynan shunday yo'l tutdim va saylovda 73 foiz ovoz olib, deputatlarga saylanganman.

– Saylovarda g'alaba qozonishga oid tavsiyalar... – Saylovlarda «shunchaki» emas, g'alabaga ishonch bilan qatnashish kerak. Nomzod o'z okrugidagi muammollardan kelib chiqqan holda kuchli strategiya ishlab chiqishi zarur. Ayniqsa, «Ustoz – shogird» an'asi asosida amaldagi deputatlarga nomzodlarning biriktilishi maqsadga muvoqiq deb o'layan. Eng muhimi, nomzod uni qo'llab-quvvatlaydigan, unga siyosiy madad bo'ladigan, samarali faoliyat ko'rtsatishi uchun qulay muhit yaratib bera oladigan, bir so'z bilan aytganda, har qanday vaziyatda ham uning ortida tura

oladigan partiyani tanlay bilishi kerak.

– Siz havas qilgan siyosatchi ayol kim?

– Tanzila Narbayevaga ixlosim baland. Bu siyosiy lider ayloning vazminligi, muzokalarasiz jarayonida tuliliy fikr bildirishidan o'rnat olsak arziydi. Yana sevimi shoiramiz, partiyamiz fraksiysi a'zosi, zehni o'tkir, fikrlari teran siyosatchi ayol – Farida Afruzga havas qilaman.

– Deputatlilik faoliyatning davomida qaysi normativ-huquqiy hujjalarga o'zgartirish kiritma oldingiz? Ijtimoiy tashabbuslaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.

– Qonunlarning ijodkori xalqdir. Bu fikrning asosli ekanligiga bugun barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Mamlakatimizda qanday qonun qabul qilinmasin, u eng avalo, xalq muhokamasiga qo'yilmoga. Bu jarayonda biz ham bevosita ishtirok etib, qator qonunlarga elektron platforma orqali takliflarimizni beryapmiz. Saylov targ'iboti jarayonlarida fuqarolardan

bog'chalar yetishmasligiga oid murojaat bo'lgandi. Ushbu masalani xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasi kun tartibiga qo'yib, mahallada yana bitta xususiy MTT o'chilishi hamda barcha quayliklarga ega tug'uruq majmuasi qurilishiga erishadi. Lekin baribir o'z faoliyatimdan qoniqmayman. Shuning uchun ham o'rnimda boshqasi bo'lganida, mendan-da samaraliroq faoliyat yuritarmidi, xalqqa ko'proq nafi tegarmidi, degan o'yanada faolroq bo'lishga undayveradi.

– Sizningha, deputatlarning yanada samarali faoliyat ko'rtsatishi uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?

– Birinchidan, agar partiyaga kuchli deputat kerak bo'lsa, nomzodlarini kuchli bilim, boy tajriba, siyosiy bazaga ega bo'lgan kadr sifatida shakllantirishga erishadi. Ikkinchidan, ma'lum masala yoki muammoga odamlarning munosabatini shakllantirishga e'tibor qaratishi kerak. Ya'ni, deputat biror muammoni ko'tarib chiqsa, unga yetarli darajada e'tibor qaratilmasligi mumkin. Agar aynan shu muammoni

biror nomdor bloger ko'tarib chiqsa, keng jamoatchilik orasida shov-shuv bo'lib ketishi aniq va mas'ullarning munosabati ham shunga yarasha bo'ladi. Demak, e'tibor berishlari uchun vahima qilish, shov-shuv ko'tarish kerak ekan-da, degan o'rni shov tugh'iladi. Men esa, deputatning faoliyat samaradorligini oshirish uchun uning vakolatlarini kengaytirish kerak degan bo'ldim.

– Oila siyosatdagi ayol uchun kuchmi yo to'siq?

– Deputat o'zgalarining dardi, tashvishi bilan yashashi kerak. Agar uning o'z asilasida muammosi bo'lsa, boshqalarga qanday yordam bera oladi?! Avvalo, meni voyaga yetkazgan, tahsil olishim uchun sarmoya kiritgan ota-onamdan, ayni paytda esa mening siyosiy faoliyatimni qo'llab-quvvatlab, har tomonloma tayanch, suyanch bo'layotgan turmush o'rting'indan behad minnadtorman. Demak, siyosatchi ayol sifatida men uchun oila – madad!

Loyiha kordinatori Feruza Jalilova

Kuting!



1 NAFAR BOLA
NOM-NISHONSIZ
YO'QOLGAN
95 BOLNING
77 NAFARI
«YOSHLAR
DAFTARI»GA
KIRITILMAGAN...


Feruza MUHAMMEDJANOVA
o'rganishlar natijasiz qolmaganini, Sirdaryo viloyati hokimi Akmaljon Mahmudaliyevning tashvysi bilan Baxt shahridagi Respublika o'g'il bolalar o'quv tarbiya muassasasi faoliyati haqidagi masala viloyat Kengashi sessiyasiga kiritilishi «Milliy tiklanish» rejiali yaratga tatbiq etilayotganidan dalolat ekanini ta'kidladi. Biroq...



Kelgusi sonlarda

– Siyosatga qachon kirib kelgansiz?
– Bu savolga javob berishdan avval, huquq va iqtisod sohasiga xitosislashgan maktabda tahsil o'ganimni aytishim kerak. Shu davrda Bolalar parlamenti shakllangan edi. Parlament yig'ilishlaridagi ishtirokimiz, maktabimizga tez-tez kelib turadigan deputatlar bilan bevosita muloqotlar, «Munozara» klubidagi bahslar, qolaversa, partiya tuman Kengashining «Yoshlar qanoti»dagи faoliyatim, amalga oshirgan loyhalarim siyosatga kirib kelishimga turtki bergen bo'lsa, ajab emas. Huquqqa oid turloylar ham meni sohaga yaqinlashtirgan deya olaman. Ustozimiz Dilfuza Iminjonovaning «Siyosatchi sifatida ancha shakllandiriz», deputat bo'lishga salohiyatingiz ham yetib qoldi», degan gapi, qolaversa, bir necha yil muqaddam marhum ustozimiz Sardora opa Mametovaga «Ustoz – shogird» an'asi asosida biriktirilganim va opaning yonida yurib, ortirgan tajribam deputatlikka o'z nomzodimni dadil qo'yishga undagan edi.

– Siyosatda ayollarning o'rni qanday baholaysiz?


 Narzulla JO'RAYEV,
 siyosiy fanlar doktori,
 professor

Nima uchun
 aynan mustaqillik
 bayramini eng ulug',
 eng aziz bayram
 deb ataymiz?
 Chunki u bevosita
 har birimizning
 sha'nimiz, qadr-
 qimmatimiz va
 mavjudligimiz
 bilan chambarchas
 bog'liq. Inson erkin
 bo'limasga o'zingin
 yaratuvchanlik,
 ijodkorlik
 imkoniyatlarini,
 buningkorlik
 qobiliyatini ishga
 sololmaydi.

Mustaqillik shuningdek, insonga
 o'zini anglish, tushunish, fikr yuritish
 imkonini ham beradi. Shuning uchun
 bu bayramni har bir inson o'zining
 qadru qimmati ko'rigi sifatida ham
 bayram qildi.

Ozodlik jamiki jonzod uchun
 zaruriy ehtiyoj. Lekin mustaqillik
 faqat inson mohiyati bilan bog'liqligi
 uchun ham alohida mazmunga ega.
 Faqat insongina mustaqil yashashga
 munosib. Chunki mustaqillik fikrash,
 aqlni ishlashish, tafakkur qilish
 imkoniyati hamdir. Darhaqiqat,
 inson o'z hayotini o'zi quradi.
 Katta maqsadlar, egzu orzular bilan
 yashaydi. O'z kelajagiga asos yaratadi.
 Baxtli, saodatli turmushini yo'lga
 qo'yadi. Farzandlari kamolini ko'rib
 quvonusi. O'z fikriga, qat'iy hayotiy
 pozitsiyasi, keng tafakkuriga ega
 bo'lgan, aql yo'rig'i bilan yashadigan
 insongina haqiqiy mustaqildir.

Mustaqillik azaldan insoniyatning
 orzu-umidlarini, armon va
 iztiroblarini, sevinch va sitamlarini
 o'zida ifoda etgan. Darhaqiqat,
 inson tabiatining gultoji sifatida
 hamisha ozodlik va hurriyatiga intilib
 yashaydi. U har jihatdan o'zini
 erkin his qilishi, ozod yashashga,
 tahlilikasiz turmush kechirishga
 ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham
 kishilik tarixi turli davrlarda Yer
 sharining baracha mintaqalarida
 ozodlik uchun kurashning shaklan
 turlicha, mohiyatan o'xshash bo'lgan
 hurriyatga intilib hodisalarini
 ko'p ko'rigan. Ana shu ozodlik
 va hurriyatining Everest cho'qqisi
 mustaqillikdir.

Eng avvalo, shuni aytish kerakki,
 mustaqillik — tenglik sari qo'yilgan
 birinchi qadam. Chunki, tenglik

”

Eng katta yutuq — o'qituvchini daladan sinf xonasiga,
 o'zining qonuniy ish joyiga qaytarganimizda bo'ldi, deb
 o'layman. Mehnatdan hech kim o'lmagan, deymiz,
 ammo o'qituvchini paxta dasasiga mardikorlikka
 chiqarib uni ma'nani sindirdik. O'qituvchini o'quvchi va
 ota-oni ko'z o'ngida qora mehnatga yuborib obro'sini
 bir pul qildik. Shurkrki, bular yaqin tarixda qoldi.

MUSTAQILLIK

ongli munosabatlarni anglash mezoni

”

OZODLIK JAMIKI JONZOD UCHUN ZARURIY EHTIYOJ.

Lekin mustaqillik faqat inson mohiyati
 bilan bog'liqligi uchun ham alohida
 mazmunga ega. Faqat insongina
 mustaqil yashashga munosib.

Jamiat qismatiga, millat taqdirliga
 mengzaydigan mustamlakachilikka
 olib keladi. Mustamlakachilik esa
 millatning xo'rlanishi, insonning
 tahqirlanishi, qadru qimmatidan
 poymol bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan
 fojaviy hodisadir.

Biz yuqorida mustaqillik tenglik
 sari qo'yilgan birinchi qadam,
 dedik. Darhaqiqat, tenglik so'zining
 qudrati shundaki, u odamlarning
 o'zaro munosabatidan tortib,
 davlatlararo munosabatlarga
 hamma narsani me'yor-mezonga
 soladi. Turli kamsitishlar, shaxs
 qadru qimmatidan tortib davlatning
 xalqaro migyosidagi sha'nigacha
 bo'lgan muvozanatning buzilishiga
 olib keladi. Inson jamiyatda teng
 mavgega ega bo'lach, davlat esa
 jahon hamjamiyatining teng huquqli

bir shaxs, har bir inson mohiyatidan
 kelib chiqadigan va butun jamiaty,
 qolaversa, insoniyatni asraydig'an
 g'oyaviy va huquqiy, ma'naviy va
 ruhiy qudrat. Istiqlol — umuminsoniy
 qadriyat.

Mustaqillik global ma'noda davlat
 nuqtayi nazaridan yondashganda
 mustamlakachilikning har qanday
 shaklini, u taqozo etadigan tazyiqlar,
 zo'ravonliklar, turli-tuman tahdidlari
 va, hatto, quroq ishlashish, harbiy
 tajovuzlarga tayor turishni, o'zini
 va xalqini himoya qilishga qodir
 bo'lgan katta siyosiy qudratni ham
 taqozo etadi.

Ayni paytda mustaqillik jahon
 taraqqiyotining ilg'or tajribalari
 asosida milliy ravnavaqning o'ziga
 xos tamoyillarini ishlash chiqish
 bilan birga yagona zamin, yagona

makon taqdirlini belgilashda
 o'zining katta siyosiy pozitsiyasi
 mavjudligini namoyon qilishdir.
 Ya'ni, umumplanetar muammolar
 inson va insoniyat taqdirlari bilan
 bog'liq o'zaro hamkorlikning yangi,
 sifat jihatidan yuqori bo'lgan,
 umuminsoniy manfaatlarga mos
 keladigan andozasi asosida yashash
 demakdir. Agar u hamkorlik,
 o'zaro hamjihatlik, mamlakatlararo,
 davlatlararo va mintaqalararo siyosiy,
 iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni
 qaror toptirmasa, o'z qobig'ida
 qolib ketishi, milliy mahdudlik
 doirasidan chiqolmasligi mumkin.
 Shuning uchun ham istiqloqning
 g'oyatda zalvorli tajribasidan o'tgan
 tamoyillarini hamma vaqti dolzarb
 bo'lib qolaveradi. Chunki u doimiy
 ravishda rivojlanib, o'zini o'zi boyitib,
 takomillashib, fuqarolar ongi va
 tafakkurini izchillik bilan o'strib
 boradigan tarixiy-ma'rifiy voqeqlikdir.

Yaqin o'tmishimizdan saboq olish
 mavridi bugun. Darhaqiqat, totalita
 tuzum davrida davlat mamlakat
 bosqaruv tizimidan tortib alohida
 alohida odamlarning kundalik
 turmushiga daxildor bo'lgan har
 qanday masalalarni, ikir-chikir
 maishiy muammolarni hal etishgacha
 hammasini o'z zimmasiiga olgan
 edi. Natijada, xalq moddiy va fikriy
 boqimandalik illatiga duchor bo'ldi.
 U faqat ishshu huquqiga ega edi,
 xolos. Mehnat, deb atalgan hissiz
 mashinishing muruvvati kabib edi. Bu
 sovet ittifoqida qonun kuchiga ega
 bo'lgan davlat siyosati edi. Odam
 shunchaki ishlar, shunchaki umr
 kechirib edi, xolos. Tirklik degan
 buyul ne'matning, hayot degan oly
 tushunchaning mag'zini chaqishga

o'zida rag'bat ham, ehtiyoj ham
 sezmas edi. Binobarin, aql bilan ish
 tutish, voqelikni idroq qilish, unga
 munosabat bildirish, o'z hayotini aql
 va tafakkur asosida qurish, kelajakka
 yorqin umid bilan qarash, katta
 maqsadlar bilan yashash tuyg'ulari
 butunlay so'ndirilgan edi. Bu inson
 uchun, millat uchun fojia edi.

Yangi O'zbekiston davlati —
 yangicha tafakkur davlati. Inson
 qadru qimmati, sha'ni, uning yashash
 huquqi va baxtli, saodatli kelajagi
 kafolatlangan davlat.

Yangi O'zbekiston davlatining
 umumplanetar masalalarni hal qilish,
 jumladan, global ekologik tahdid,
 suv taqchilligi, oziq-ovqat tanqisligi
 va, eng muhim, XXI asrning eng
 og'ir fojiasi sifatida insoniyatning
 qadriyatlardan uzoqlashish
 jarayonining oldini olishga qaratilgan
 siyosiy qarashlari uni mustaqil davlat
 sifatidagi xalqaro mavqeyini, obro'-
 e'tiborini o'zida ifoda etadi.

Yangi O'zbekiston davlati uni
 tashkil etgan xalq intellektual
 salohiyati, aqliy imkoniyati va
 buyuk maqsadlarining in'ikosi.
 Mustaqillik bayrami — bizni buyuk
 kelajagimiz, nurafoshon istiqbolimiz
 haqidagi tasavvurlarimiz mavridi.
 Mustaqillik bayrami — o'z qadru
 qimmatimizni, milliy oriyatimizni
 namoyon etish mavridi, O'zbekiston
 deb atalgan o'tmishi ulug',
 kelajagi buyuk, shonli, shuhuhl
 xonardonimiz, o'ttiz olti millionli
 mahobatli oilamal taqdirlig
 taqdirdoshlik tuyg'ularimiz atrofida
 fikrash mavridi. Ana shunday
 ma'rifatga, ma'naviyatga asoslangan
 eng ulug', eng aziz bayram, butun
 xalqimizga muborak bo'lsin!

Ta'lim


 Farida BO'TAYEVA,
 Oliy Majlis Qonunchilik palatosi deputati

Buyuk Navoiy bobomiz o'zlarining
 «Mahbub-ul-qulub»ida
 o'qituvchilikning mashaqqati xususida
 shunday yozdarlar: «Uning ishi odam
 tugul, hatto devning ham qo'lidan
 kelmaydi. Bir kuchi kishi bir yosh
 bolani saqlashga ojizlik qilar edi, u esa
 bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi.
 Lekin shunisi ham borki, bolalar
 orasida fahmi idroki ozlari bo'ladi.
 Muallim bu kabi hollarda yuzlab
 mashaqqat chekadi. Shu jihatdan
 olganda, bolalarda uning haqi ko'p,
 agar shogird ulg'aygach, podshohlik
 martabasiga erishsa ham unga
 (muallim) qulluq qilsa arziydi».

Haqiqatdan ham, esimizni tanibmizki,
 qo'limizdan tutib, o'qish-yozishni
 o'rgatgan ustozlarimizning mashaqqatini va
 mas'uliyatlari mehnatlariga guvoh bo'lamiz.
 Butun kuch-g'ayrati, qalb qo'riyu, mehrini
 shogirdlariga baxshida etgan zahmatkash
 ustozlarimiz borki, biz va farzandlarimiz
 ulardan «Ota-on», «Vatan», «Ezgulik»,
 «Sadoqat», «Vijdon» kabi so'zlarning
 mazmun-mohiyatini taniy boshlaysi.

Yurtimizda o'qituvchining mavqeini
 har tomonlama ko'tarishga davlat siyosati
 darajasida e'tibor qaratilayotgani sabab ham
 shunda. Ushbu e'tiborning amaliy ifodasi
 haqida so'z yuritilganida, juda ko'plab
 hayotiy misollar keltirish mumkin. Ularning
 hayoti, ish faoliyatidagi o'zgarishlar
 miyosi va ko'lami haqida ham har qancha
 gapirsak oz.

Eng katta yutuq — o'qituvchini
 daladan sinf xonasiga, o'zining qonuniy
 ish joyiga qaytarganimizda bo'ldi, deb
 o'layman. Mehnatdan hech kim o'lmagan, deymiz,
 ammo o'qituvchini paxta dasasiga mardikorlikka
 chiqarib uni ma'nani sindirdik. O'qituvchini o'quvchi va
 ota-oni ko'z o'ngida qora mehnatga yuborib
 obro'sini bir pul qildik. Shurkrki, bular yaqin
 tarixda qoldi.

Ma'lumki, 2023-yilning 27-mart kuni
 Prezidentimiz o'qituvchilarini mehnatga
 majburlaganlik uchun jinoiy va ma'muriy
 javobgarlikni belgilovich va mehnatga
 noqonuniy aralashganlik uchun jazoni
 kuchaytiruvchi qonunga imzo chekdiradi.
 Endilikda pedagog xodim majburiy
 mehnatga jaib etilsa, BHMning 150
 baravar miqdorida jarima bilan jalozanadi.
 Vaholanki, xuddi shunday noqonun
 harakat pedagogdan boshqa shaxslarga
 nisbatan qol'lanilgan taqdirda. BHMning
 100 baravar miqdoriga jarima to'lashga
 to'g'ri keladi.

Bundan tashqari, ta'lim tashkiloti


pedagog xodimining kasbiy faoliyatiga
 qonunga xirol ravishda aralashish yoki o'z
 xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik
 qilish uchun ham ma'muriy javobgarlik
 kuchaytirildi. Endi bu qilmish uchun
 fuqarolarga 2,31 mln. so'mdan 4,95 mln.
 so'mgacha jarima, mansabdor shaxslarga
 esa 3,3 mln. so'mdan 6,6 mln. so'mgacha
 jarima belgilanadi. Ilgari pedagoglar
 faoliyatiga noqonuniy aralashish faqatgina
 jarima solinishing sabab bo'ldi. Bundan
 buyon ushbu qilmishni takroran sodir
 etgan mansabdor shaxslarga nisbatan
 etgan haqida qora mehnatga qamoq jazosi
 belgilandi.

Yana bir katta yutuq'imiz shundaki, bugun
 biz o'qituvchini xat-hujjat, qog'ozbozlikdan
 qutqardik. Ba'zan o'quvchilarining sonidanda
 ko'p bo'lgan qog'ozlarga «ko'milib»
 ketgan o'qituvchining asosiy ishi, ya'ni
 bilim berish vazifasi qolib, hujjat to'ldirish
 bilan ovoray sarson bo'ldi.

Bugun esa pedagog-xodimlar
 tomonidan yuritiladigan hujjatlar soni
 keskin kamaytirildi. Xususan, o'qituvchilar
 hisoboti hozirgi paytda 1 ta (ilgari —
 7 ta), o'quv ishlari bo'yicha direktor
 o'rinbosarining hujjatlari 2 ta (ilgari — 10 ta),
 ma'muriy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor
 o'rinbosarining hujjatlari 7 ta (ilgari — 18 ta),
 sinfrarbarlarining hujjatlari 4 ta (ilgari — 10 ta)
 etib belgilandi. Eng muhim, o'qituvchiga
 e'tibor, hurmat va ehtirom qaytdi.

Mulohazalarimizni avstriyalik yozuvchi
 Mariya Ebnerning quyidagi so'zlarini bilan
 yakunlamoqchiman: «O'qituvchilardan
 hamma mo'jiza kutadi. Ular mo'jiza
 ko'satsaganida esa, hech kim hayratga
 tushmaydi». Darhaqiqat, o'qituvchilar
 farzandlarimizni inson sifatida kamolga
 yetkazib, ularga bilim durdonalarini berib,
 haqiqiy mo'jiza ko'satsadilar. Zotan, bu
 ulkan mashaqqat va matonat, fidoyilik talab
 qiladigan kasbdir.


Kuting!



AZAMAT ZIYO:

PREZIDENT
 NUTQINING ASL
 MOHIYATI NIMADA EDI?

Kelgusi sonlarda



Bir cubbatda mendan birinchi o'qigan kitobimni so'rabb qolishdi, eslay olmadim, ammo yoshlidma boshqa tengdoshlarimga nisbatan kitobi ko'p o'qiganim aniq. Domlalar: «Kitobni kim ko'p o'sisa, undan zo'r odam chiqadi», deyishardi. Keksalar nasihat qilishar ekan, «Kitoba bor gapni aytayaman, bolam», deb qo'yishardi. Biz bo'lsak, bu gap qaysi kitoba aytilgan ekan-a, deb qiziqib, zo'r odam bo'lish uchun qo'lizmiga nima tushsa, o'qib ketaveradik. U paytalar kitob hozirgidek mo'l emasdi.

ko'rsin-chi, «Alpomish»ni, «Ravshan va Zulxumor»ni, «Go'ro'g'li»ni, «Yozib bilan Zeboni, Avazxonni, G'irko'kni, Boychiborni bilishadimi? Farzandlarimiz ko'z o'ngimizda kitob o'qib emas, kompyuter dasturlariga joylashtirilgan jang, otishma, ur-yoqit, quvidi-qochdi o'ynirlarni o'ynab katta bo'lishmoqda. O'qigan kitoblarini bir-birlariga aytib berish, maktablarda bayon yozish tobora kamayib borayotir.

Shu orinda o'zim kuzatgan bir holatga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Sarguzashit kitoblarini ko'p o'qigan bola bilan, bunday kitoblarini o'qishga o'rgatilmagan bola xarakterida jiddiy farq bor. Kitobxon bolalarning nutqi ravon, fikrash doirasini keng, eshitish va eshitiganlarini o'zlashtirish qobiliyatiga ancha yuqori bo'ladi. Bunday bolalarning xarakterida mehribonlik, o'zaro do'stlashish, orqada qolayotgan tengdoshiga yordam ko'rsatis, bironvi bichuda ranjitaslik, xasislik qilmaslik, qush va uy hayvonlariga ozor bermaslik xususiyatlarni ko'rish mumkin. Masalan, ko'p ertak o'qigan bola o'zi haqidagi biron sarguzashhti qo'shib-chabit so'zlayotgan bo'lsa, beixtiyor: «Yo'l yurdik, yo'l yursak ham mo'l yurdik, tosh kelsa kemirdik, suv kelsa simirdik...» devorishi hech gap emas.


